

*Sattorova Sabohat Safarali qizi  
Denov tadbirkorlik va pedagogika  
instituti magistranti  
[s.sattorova@dtpi.uz](mailto:s.sattorova@dtpi.uz)  
93 795 08 14*

Istiqlol davri adabiyoti mustaqillik e'lon qilinishi bilan yangi ruh va g'oyalar bilan boyib bormoqda.

Bu davr adabiyoti mustaqillik shukuhi ruhiyati va ma'naviyati bilan boyib, yangilanib bormoqda. Ushbu tarixiy yangilanish zamonida adabiyotshunoslik tarixining tadrijiy o'sishi kuzatildi. Jumladan, adabiyotshunoslikning hikoyachilik, qissachilik, romonchilik va she'riyat kabi janriy turlarida ham yangilanish va o'zgarishlar davom etmoqda.

Har qanday jamiyatda yangilanish va o'zgarishlar jamiyatning ilg'or qatlamini ta'sirlantirgani kabi mustaqillik shamoli ham ijodkorlar ruhiyatiga o'zgacha ta'sir qildi. Qalamkashlarimiz yangilangan davrga ko'ngil ko'zi, yaratuvchanlik nuqta'i nazaridan boqish bila birga dunyodagi barcha voqealarga – hodisalarga sog'lom nigoh bilan qaray boshladi.

O'tgan asrning 80–90 yillardagi yangilanish odatiy an'anaviy ijod yo'lida o'zgachalikni yuzaga keltirdi, XIX–XX asr boshlarida G'arbda paydo bo'lgan adabiy oqimga o'xshash sifatlar namoyon bo'la boshladi. Hozirgi nasrimizdagi mazkur ijodiy izlanishlar darhol adabiy jamoatchilik e'tiborini tortdi. Bu hol o'zbek nasrining tahlil hududi kengayishi, Xususan, obyektiv olam, voqealarga-hodisalar, inson kechinmalari, ruhiy talqini, ichki tuyg'ularini jamlagan holda kitobxon qahramon bilan emas balki, uning tafakkuri bilan muloqotga kirishadigan, uning tafakkur jarayoni bilan bahslashadigan bo'ldi.<sup>1</sup>

Badiiy adabiyotning har bir yo'nalishi she'riyat, nasr va dramaturgiya mustaqillik shamoli esishi bilan yangidan – yangi mavzular bilan boyib bormoqda. Bu esa, o'zbek adabiyoti tarixida yangi zamon va yangi tarixning boshlanganidan darak berar edi.

Bu davrda ilk maydonga shoirlar yangilangan asarlari bilan chiqa boshlashdi. Shoirlar endilikda o'z she'rlarida vatanning oltin-u, kumush konlarini emas, uning insonlarini, tarixini va olimlarini madh etgan she'rlar bitishdi. Komunizm davri adabiyotida vatanning bog'lari, paxtazorlari, konlari bug'doyzorlari bilan faxr tuygan

<sup>1</sup> Axadova Sevara Toxirqizi. "ISTIQLOLDAVRIHIKOYACHILIGININGO'ZIGAXOSXUSUSIYATLARI" JOURNAL. OFIQRO–ЖУРНАЛИКРО–IQROJURNALI–volume13, issue01, 2024.  
<https://worldlyjournals.com/index.php/IFX/article/view/8099/12911>

holda bitilgan she'r va dostonlardan butkul farq qiluvchi asarlar yaratildi. Tabiiyki, vatanni sevmoq faqatgina moddiy boyliklariga bog'liq emas. Abdulla Oripov bir she'rida: "Yurtim, seni faqat boyliklaring chun Sevgan farzand bo'lsa, kechirma ham!" deb xitob qildi. Zotan bu ko'hna zaminda O'zbekistonning ma'naviy muhitini, ob-havosini, shon-sharafini, shuhratini dunyoga tanitib turgan, eng muhimi, Vatan timsoliga aylangan ulug' siymolari bor. Bu ulug'larning nomi yurtning uzoq-yaqin tarixi sahifalarini bezaydi. Ular orasida jahon ilm-faniga, ma'naviyat va adabiyot xazinasiga ulkan hissa qo'shganlari, Erkin Vohidov ta'biri bilan aytganda, "sirli olam toqiga birinchi narvon" qo'ygani ham, "she'riyat mulkida shoh-u sulton" bo'lgan ham, dushmanlarga qarshi "ko'ksi qalqon" vatanparvarlari ham mavjud. O'z vaqtida Vatan ozodligi, hurligi va erki ramziy ravishdosh shoirlar ijodining asos-negiziga joylandi. Nafaqat o'zbek, balki jahon adabiyoti tarixida Vatan haqida she'r yozmagan shoir kamdan-kam topiladi.<sup>2</sup> Albatta, bu she'rlarning insonga ta'sir kuchi turlichadir. Ba'zilarida shoir ichki hislarini shu qadar hayqirib aytadiku bunda biz aynan "Vatan", "Yurt", "Avlodlar" kabi so'zlar bo'lmasa-da, butunligicha vatanga bo'lgan muhabbatni his qilamiz.

Ba'zi shoirlarimiz esa, she'riyatga ko'ngil istaklari aks etgan yangi yo'nalishdagi she'rlar bilan kirib kelishdi. Hissiyot qatlamlarini o'rganish, inson ruhiyatining boy va rangin jihatlarini kashf qilishga urinish kuchaydi.

R. Parfining "Adashgan ruh", "Qora devor", "Munojot", "Sensiz", Sh. Rahmonning "Turkiylar", "Iqror", A. Suyunning "Istig'for", "Oq va qora", A. Qutbiddinning "Izohsiz lug'at", A. Saidning "Tush", "Yo'l", Faxriyorning "Ayolg'u", "Bo'g'zimdan sirqirar tovush – qon ...", "Oyloq kecha" she'riy asarlarini na'muna sifatida ko'rsata olamiz. Bu she'rlarni o'qiyotgan o'quvchi faqatgina ko'ngil ochish vositasi sifatida qaray olmas edi. Bu she'rlarni anglash va tushunish uchun insondan mantiqiy fikrlash, tuyg'ularini zo'riqtirishi va aqliy mehnat qilishi talab qilinar edi.

### R. Parfining

Yerga botgan osmonlarni kuzatdim,  
chopilgan oyog'im bilan chopdim men  
Chopilgan qo'llarimni sizga uzatdim.  
Bu dunyo gullarga to'ldi. Qotdim men  
Shaftolirang olam nayza uchinda,  
Dunyolari yolg'on, men o'ldim chindan

Bu namunani anglash va asl ma'nosini tushunish uchun anchayin mehnat talab qilinadi. Yoki Faxriyorning

<sup>2</sup> Axadova Sevara Toxir qizi. "ISTIQLOLDAVRIHIKOYACHILIGININGO'ZIGAXOSXUSUSIYATLARI" JOURNAL. OFIQRO-ЖУРНАЛИКРО-IQROJURNALI-volume13, issue01, 2024.  
<https://worldlyjournals.com/index.php/IFX/article/view/8099/12911>

*qobirg'alar qabarar suyaklarim qadoqdir qaboqlarim o'q tugab bo'shab qolgan sadoqdir kuyib kuyib kul bo'lgan nafratlarim adoqdir nafratlarim adoqdir chuchmomolar ko'k kiygan namozshomgul gul gulim hey tulim hey tulugim hey tulum.*

Tinish belgilari o'rniда qo'llanilmagani uchun she'rni anglash biroz mushkul. Faxriyor yana bir she'ri bilan o'zbek adabiyoti tarixida yangi bir an'ana o'zgacha uslubni yaratdi ya'ni ikki so'zdan iborat she'r:

### *Oy bolta*

she'rda tinish belgilari qo'llanilmagani va bosh harflarda yozilmaganligi uchun ma'no va izoh o'quvchining o'z holiga qo'yiladi. Bu yerda xohlang oyni boltaga, yoki boltani oyga o'xshating. Xohlasangiz umuman falsafiy boshqa ma'no chiqaring buning uchun siz Faxriyorni yaxshi tanishingiz, ijodini bilishingiz va ko'ngil kuylaridan xabardor bo'lishingiz kerak. Bu kabi o'zgarishlar va yangilanishlardan mustaqillik davri adabiyotining shoirlar ruhiyatiga o'z ta'sirini anchagina ko'rsatganini anglaymiz.

O'zbek she'rxonlarida biror tinish belgisi ishlatilmagan tizmada ham, murakkab mavhum obrazlilikka to'la she'riyatda ham, tasavvufiy ilhom samarasi o'laroq dunyoga kelgan munojotlarda ham poetik mim deyish mumkin bo'lgan ramziy ifodalarda ham meditativ nazm na'munalaridan ham ta'sirlanib, ularni baholay olish ko'nikmasi shakllanib bormoqdaki, bundan bir qadar qanoat tuyish mumkin.<sup>3</sup>

Mustaqilik shamoli eng avvalo shoirlar qatlagini ta'sirlantirdi va mustaqillik shukuhi va shukronaligi barq urib turgan she'rlar yozila boshlandi.

She'rda ta'sir quvvati, har bir shoirning o'z o'quvchisiga o'z aytar so'zi va o'ziga xos uslubi bo'lishi kerak.

Bu dunyoga bir qo'shiq, berib ketgin,  
Shoirim – Marhumlar uyg'onsinlar,  
Uxlolmasin tiriklar. (Usmon Azim)

Bu o'tkir va o'ziga xos poetik tabiatli to'rt misrada shoir o'z zamondosh shoirlar she'rlarining balandligi, ta'sirli umr-boqiy she'r javobiga chaqirayotgandek taassurot qoldiradi. Shunday she'riy na'munalarni o'z ichiga jamlagan o'nlab shoirlarning to'plamlari aynan istiqlol yillarida dunyo yuzini ko'rdi.<sup>4</sup>

Mustaqillik shamoli tufayli ko'p ijodkorlarimizning asarlari qayta chop etilib, Xalqimiz qo'liga yetib bordi.

Zamonaviy o'zbek adabiyoti qadamma – qadam ildamlab qalami o'tkir, nafasidan shijoat ufurib turadigan shoirlarni yuzaga chiqardi. Ulardan Jontemir Jondor,

<sup>3</sup> <https://arxiv.uz/uz/documents/referatlar/adabiyot/istiqlol-davri-o-zbek-adabiyot>

<sup>4</sup> Xakimova Ro'zigul Abduvali qizi. "MUSTAQILLIK DAVRIDA NASR". Journal "Mejdunarodny nauchny jurnal(100),chast1"Nauchnyy impuls".yunya, 2023.

<https://nauchniyimpuls.ru/index.php/ni/article/view/10666/7088>

Tillaniso, Shahobiddin Luqmon, Faxriyor va boshqa ko‘plab ijodkorlarni sanab o‘tishimiz mumkin.

Istiqlol davri insonlarining tabiatini, dunyoqarashi bilan birgalikda uning his – tuyg‘ulari va nigohlari ham yangilangan edi. O‘quvchi avvalgidek o‘quvchi bo‘lmagani kabi tamoshabin sifatida ham avvalgidek emas edi. Natijada yangi sahna asarlari yozilishiga ehtiyoj yuzaga kela boshladi. Mustaqillik yillarida qator sahna asarlari yozildi, sahnalashtirildi, tarixiy sahna asarlarining ba’zilari qayta jonlantirildi mana shu yo‘sinda drammaturgiya olamida ham yangilanishlar kuzatildi.

Erkin A’zamning “Orol bobo” pyesasida tamoshabinlar qurib boryotgan orol dengizi haqida chuqur o‘yga tolsalar, Muhammad Alining “Sohibqiron o‘ylari” asarida Amir Temurning donoligi va fazilatllarini olqishlashdi. Bundan tashqari Maqsud Shayxzodaning “Mirzo Ulug‘bek”, “Jaloliddin Manguberdi”, Abdulla Oripovning “Sohibqiron”, Shekisperning “Gamlet”, “Otello”, Genjaboyevning “Arshinmololon” kabi asarlar qayta sahnalashtirildi va tamoshabinlarning olqishlariga sazovor bo‘ldi.

Drammaturgiya sohasida mustaqillik tufayli tarixiy haqiqatlar va shaxslar aks etgan sahna asarlarining qayta tiklash va sahnalashtirishga e’tibor kuchaytirildi. Keinchalik bu asarlar asosida kinofilmlar va hujjatli filmlar suratga olindi.

Xalqimiz XX asrning so‘ngi yillarida o‘z tarixiy davrining yangi bosqichiga kirib keldi. Bu bosqich shunchaki tarixiy tadrijning uzilmas zanjirining bir bo‘lagi sifatida emas, yangilangan zamon tarzida insonlarga o‘z ta’sirini o‘tkazdi. Islom olami xalqlarining hikoya, qissa va boshqa janriy shakllarining barchasi qadim zamonlardan Islom dinining dasturulamali hisoblangan “Quroni karim” va “Hadis” ilmi bilan sug‘orilgani ammo mafkuraviy tayziqlar davomida yetmish yildan ko‘proq davr moboynida ta’qilangani edi. Mustaqillik adabiyoti nasri mana shu an’anani qayta boshlab bergen asarlar bilan to‘lib toshdi. Insonlar endilikda odam va olam haqidagi sof bilm va tasavvurlarni bilishni xohlashar edi bu esa, adiblarimiz uchun yangi vazifa o‘laroq yangi asarlar yaratish vazifasini qo‘yar edi. Mustaqillik davri adabiyoti olam hodisalari va odam ruhiyati qirralariga xilma – xil qarash, dunyoning mavjudlik tarzi va undagi tartibotlarni turlicha izohlash imkoniyati mahsuli bo‘lgan adabiyotdir. Mustaqillik davri adabiyoti siyosati badiiy adabiyotni sho‘ro davrida bo‘lgani kabi o‘z mafkuraviy quroliga aylantirishga urinmasdan erkin qo‘ygani bilan o‘ziga xoslik kasb etadi. Bu adabiyot siyosatga bo‘ysundirilmagani uchun ham ijodkorning ko‘ngil ishiga aylandi.<sup>5</sup>

Endilikda badiiy adabiyotda yozuvchilar bayon qilish tasvirlab ko‘rsatish kabi usullardan voz kechgan holda qahramon harakterini uning ichki ovozi va ruhiy his – tuyg‘ulari orqali ko‘rsatishni ma’qul ko‘rdilar. Natijada shakliy jihatdan noaniqdek

<sup>5</sup> Амиркулова Зебунисо Мустафакуловна. “МУСТАКИЛЛИК ДАВРИ ЎЗБЕК ҲИҚОЯЛАРИДАРИХИЙ ШАҲСЛАР ОБРАЗИНИНГ БАДИЙ ТАЛҚИНИ”. Филол. фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун ёзилган ДИССЕРТАЦИЯ

badiiy maqsadga bo‘ysundirilmagandek ko‘rinsa ham aslida esa, inson ichki kechinmalari va tuyg‘ularidan tashkil topgan asarlar yaratila boshlandi. Adiblar o‘z qahramonlarini jonlantirishda uning insonga xos shakllari haqida emas, borlilik shakllarini qalamga ola boshlashdi. Muhim jihat esa, bir xillilikdan qochishga intilish boshlandi va asta-asta bir xil peyzaj yaratish an’anasi o‘z o‘rnini yangilanishlarga bo‘shatib bera boshladи.

Bu davrda tarixiy qahramonlar portretini yaratishga katta urg‘u berildi. Bu tasvirlarni yaratishda oddiy va jo‘n tasvirlash usullaridan qochib, adabiyotshunoslikda betakror va ajoyib tasvir vositalaridan foydalanila boshlandi.

Aslida “Real – tarixiy shaxsning badiiy obrazini yaratish juda ma’sulyatli vazifa.

Tarixiy shaxs faoliyatiga nihoyatda chuqur bilimdonlik va ehtiyyotkorlik bilan yondashish kerak. Tarixiy qissalar tahlili jarayonida qahramon qiyofasini yaratishga o‘ta e’tiborsizlik bilan yondashish nechog‘lik adabiyotning obro‘siga putur yetkazishga ham olib kelishi mumkin.<sup>6</sup> Albatta tarixiy asarlarning yoritilishi anchayin murakkab va mas’ulyatli vazifa bo‘lib, asarni yozishni niyat qilgan har bir yozuvchi eng avvalo tarixiy shaxs va voqeliklar haqida batafsil ma’lumotlar olishi kerak. Mustaqillik yillarida yaratilgan Muhammad Alining besh tomdan iborat Amir Temur va uning avlodlarining hayot yo‘llariga bag‘ishlangan asarlari “Jahongir mirzo”, “Shohruh mirzo”, “Umarshayx mirzo”, “Mironshoh mirzo” kabi asarlari o‘quvchilar tomonidan iliq qarshilandi va sevib o‘qila boshlandi. Yozuvchi tarixiy shaxslarni jonlantirishda ham tarixchi ham adabiyotshunos nuqtai – nazaridan boqqan va takrorlanmas asarni dunyoga keltira olgan.

Istiqlol iste’dodli adiblarning ko‘nglida saqlanib kelgan mavzularning badiiy talqini uchun imkon berdi. Xususan, Said Ahmad, Odil Yoqubov, Shukur Xolmirzayev kabi adiblar mustaqillik yillarida Sho‘ro tuzumi davrida ijod qilgan ammo chop eta olmasdan qolib ketgan, biror asar holiga keltira olmagan o‘y – fikrlarini “Sarob”, “Qorako‘z majnun”, “Oftob oyim”, “Muzqaymoq”, “Bandli burgut” kabi asarlarda aks ettirdi. Istiqlol davri o‘zbek nasrida insoniy qadriyatlarni e’zozlash, milliylikni qadrlash, mashhur tarixiy shaxslar hayotini badiiy talqin qilish, zamon qahramoniga munosib obrazlarni tasvirlash kabi tamoyillar yetakchilik qiladi. Mustaqillik davri nasrida inson va tabiat masalasi adiblar tomonidan ko‘p qalamga olindi. Zero, tabiat og‘ushidagi minglab, millionlab xilqatlarning o‘z fazilati, fitrati, xususiyati bor. Inson esa ular ichida eng go‘zal, eng mukarram. Badiiy asar ma’lum bir zamonda muayyan ijodkor tomonidan yoziladi. Biroq u hamma davrlarda yashayotgan insonlar tabiatiga mos kelishi, o‘y-kechinmalariga ta’sir ko‘rsatishi lozim. Keyingi yillarda o‘zbek adabiyotining nasr yo‘lida shunday badiiy puxta asarlarning yozilayotgani quvonarlidir. Xususan, tasvirlar suratdan siyratga, oddiy ma’lumotdan inson

<sup>6</sup> Кўбаев К. Ўзбек қиссаларида тарихий ҳақиқат ва бадиий маҳорат (60-80 йиллар). Филол. фан. номз... дисс. автореф. – Тошкент, 2001. – Б. 18.

kechinmalariga-obrazli qilib aytganda irmoqdan ummonga ulanayotgandek taassurot qoldiradi. Istiqlol davri nasri o'tgan davr ijodkorlarining yozilish uslubi jihatidan tubdan farq qiladigan shaklidir. Xususan, bu davr adabiyotida yagona mafkura va partiya hukumronligi ta'siridan qutilgan olam va odam ruhiyatiga mos asarlar yaratila boshlandi. Bu erkinlik esa, o'z navbatida yangilanish va fikrlar xilma – xillagini yuzaga keltirdi.

Fikrlar xilma – xilligi esa, yangi va o'zgacha asarlar yaratilishiga zamin yaratdi. Bu davr ijodkorlari insonga ishchi kuchi, ma'lum jamiyat a'zosi, ishlab chiqaruvchi sifatida emas, inson tuyg'ulari va ongi bilan harakat qiluvchi shaxs sifatida birinchi o'ringa qo'yila boshlandi. Insonning o'zi oliy darajadagi mavjudod, har qanday g'oya va qarashdan ustun bo'lgan yaraluvchi, erkin shaxsga aylandi va erkinlik, ruhiy beqarorlik ijodkorlarning ijod mahsuli sifatida namoyon bo'la boshladi. Hukmron mafkura davrida partiyaviy shior va turli mehnatkash guruhlar olqishlangan asarlar yaratilgan bo'lsa, mustaqillik davri nasrida inson ruhiyati yetakchilik qila boshlandi (Erkin A'zam "Ozod")

Mustaqillik davri adabiyotida tabiat va inson munosabatlari aks etgan yangi asarlar yozila boshlandi.

1990 – 2000 yillarda yaratilgan Omon Muxtorning kichik romonlari, Tog'ay Murodning "Otamdan qolgan dalalar", Murod Muxammad Do'stning "Lolazor", Xurshid Do'stmuhammadning "Bozor", Nazar Eshonqulning "Go'ro'g'li", Ulug'bek Xamdamning "Muvozanat", To'xtamurod Rustamning "Kapalaklar o'yini" va keyingi davrlarda – 2000 – yillardan bugungi kungacha yaratilgan Naim Karimovning "Cho'lpon", Xurshid Do'stmuhammadning "Donishmand Sizif", Asad Dilmurodning "Fano dashtidagi kush", Isajon Sultonning "Ozod", Erkin Samandarning "Tangri kudugi" asarlari, X.Do'stmuhammadning "Bozor", "Donishmand Sizif" romanlari roman tafakkurida badiiy talqin etilgan jamiyat badiiy-estetik tafakkuri inikosi, shu bilan birga qadimgi yunon mifi Mustaqillik yillarida respublikamizning ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotida amalga oshirilayotgan islohotlar, tabiiyki badiiy adabiyot sohasida ham o'z aksini topmoqda. Mamlakatimizning taraqqiy etgan davlatlar hamjamiyatiga qo'shilishi muloqot imkoniyatlarini kengaytirdi, tillarga bo'lgan e'tibor badiiy asarlarni asliyatda o'qishga, asliyatdan o'zbek tiliga o'girishga olib keldi, yetuk adiblar qo'llagan uslublar o'zbek yozuvchilari uchun badiiy mahorat mifikini o'tayotgan bo'lsa, jahon adabiyotshunosligida qo'llanilayotgan ilg'or tahlil metodlarini o'zlashtirish adabiyot sohasida olib boriladigan tadqiqotlarni ham faollashtirdi, ilm-fan yo'nalişlarini boyitdi. O'zining uch asrdan ziyodroq taraqqiyot tarixida roman janr sifatida o'zining yashovchanligini, mukammaligini, inson va jamiyat bilan chambarchas bog'liqligini namoyon etayotgan bo'lsa, XX asrda A. Qodiriy asos solgan o'zbek romanchiligi ham dunyo romanchiligi bilan bahslasha oladigan baquvvat asarlar solnomasini yaratmoqda. Roman epik janr sifatida jamiyat

badiiy-estetik tafakkuri inikosi sifatida yuzaga kelar ekan, unda inson va jamiyatga xos taraqqiyot va tanazzul sabab va oqibatlari badiiy talqin etilishi tabiiy (biz bunda badiiy baquvvat romanlarni nazarda tutyapmiz). Etirof etish kerak, o‘zbek romanchiligi va romanshunosligi bir-biriga monand rivojlandi.

Mamlakatimiz o‘z mustaqilligiga erishganidan so‘ng axborotlarning to‘g‘ri shaklda yetib kelishi, siyosatda yangilanish va qarorlar tufayli boshqa millat va xalqlar bilan erkin fikr almashish, til o‘rganishga oid qarorlar tufayli asarlarni asl manbaalari va asl tillarida o‘qiy olish imkoniyati paydo bo‘ldi. Natijada aralash madaniyatlarga oid asarlar ham yaratila boshlandi.

Romonchilik va nasrning boshlang‘ich tamal toshini qo‘ygan adiblardan A. Qodiriy boshlab bergen nasr bugungi kunda mustahkam va baquvvat janrga aylanib bormoqda.

Omon Muxtorning hajman mo‘jaz romanlari, Tog‘ay Murodning “Otamdan qolgan dalalar”, Murod Muhammad Do‘sning “Lolazor”, Xurshid Do‘stmuxammadning “Bozor”, Nazar Eshonqulning “Go‘ro‘g‘li”, Ulug‘bek Xamdamning “Muvozanat” kabi romanlarni yangilanish davrining badiiy baquvvat romanlari desak mubolag‘a bo‘lmaydi.<sup>7</sup>

O.Muxtorning “Ko‘zgu oldidagi odam”, “Aflatun”, X.Do‘stmuhammadning “Bozor” romanlarida falsafiy mushohada, “Ming bir qiyofa”, “Tepalikdagi xaroba”da psixologik tahlil, T.Rustamning “Kapalaklar o‘yini”da absurd g‘oya bugungi kun misolida ochib berilishi romanchiligmizda noananaviy uslublarning yuzaga kelishida aslida biz yashayotgan voqelik ham alohida o‘rin tutishini ko‘rsatadi. Romanchiligmizda noananaviy romanlarning yuzaga kelishining eng muhim omili janrning tadrijiy taraqqiyot talabi bo‘lib, janrga xos yangilanish, isloh qilish, tarixiy poetika komponentlarini namoyon etish o‘zbek romaniga ham xos xususiyatdir. Bu nafaqat o‘zbek romani dinamikasini, umuman, roman janrining tadrijini ifodalaydi<sup>8</sup>.

Mustaqillik davrida hikoyachilik ham alohida yangilanish va o‘zgarishlar yuzaga kela boshladi. Bu davr hikoyachiligidida Erkin A’zam, Nazar Eshonqul, Ulug‘bek Hamdam, Xurshid Do‘stmuhammad kabi ijodkorlar o‘z asarlari bilan adabiyot maydoniga chiqa boshlashdi.

“Yozuvchi o‘zi mansub bo‘lgan xalqning milliy mavqeida mustahkam tursa, tasvirlanayotgan voqeа hodisalarga o‘z xalqining ilg‘or farzandi nuqtai nazaridan qarasa va keljakka nazar sola bilsa, uning asarida ifodalangan milliy tuyg‘ular umumbashariylik tusini oladi”<sup>9</sup>.

Istiqlol davri ijodkorlari inson ruhiyatini yanada go‘zal tarzda akslantirishga ko‘proq e’tibor qarata boshladilar.

<sup>7</sup> <https://jdpu.uz/mustaqillik-davri-ozbek-roman%D1%87iligi-badiiy-va-ilmiy-tafakkur-masalalari/>

<sup>8</sup> <https://jdpu.uz/mustaqillik-davri-ozbek-roman%D1%87iligi-badiiy-va-ilmiy-tafakkur-masalalari/>

<sup>9</sup> Фойибов Н. Санъат тараққиётининг баъзи масалалари. Тошкент, Адабиёт ва санъат. 1970, 108-6.

Nazar Eshonqul, Ulug‘bek Hamdam, Xurshid Do‘stmuhammad, Erkin A’zam kabi o‘zbek adiblari ijodida inson xarakterining psixolingvistik tasvirini aks ettirishda badiylik mahoratini ko‘rishimiz mumkin. Ularda inson tasviri ko‘rinishi va hatti harakatlaridan hamma kabi harakat qilsa-da, Fikrlari ichki kechinmalari ba’zan yig‘isi bilan, ba’zan esa quvonchi bilan o‘quvchiga ta’sir qiladi.

Istiqlol davri o‘zbek adabiyoti yaqin vaqtlar ichida o‘zining yangicha ruh va qarashlari bilan boyigan yangi adiblarini yuzaga chiqardi. Ular ichida Nurilla Choriev, Xoliyor Safarov, Sanjar Tursunov, Jasur Kengboyev, Javlon Jovliyev, Nodira Ibrohimova kabi yosh ijodkorlarning hikoyalari paydo bo‘ldiki, ularda mutloq yangi zamon, yangi davr ruhi aks etdi.

Javlon Jovliyev mustaqillik davri ijodkorlari ichida o‘z tengdoshlaridan anchayin o‘zib ketdi. Tengdoshlari orasida birinchilardan bo‘lib, romon janriga qo‘rmasdan qo‘l urgan adibdir. Uning “Qo‘rqma” romoni adabiyotshunoslik tarixida yangicha yo‘nalishi, yangicha uslubi bilan joy oldi. Asar chop etilgan yildayoq “Bestseller” “Eng ko‘p sotilgan va o‘qilgan asar” sifatida e’lon qilinishiyoq bunga isbot bo‘ldi. Asarning bu qadar keng yoyilishi va hayonlarga sabab bo‘lishiga esa, millatimizning oydinlari hisoblangan jadidlar va ilk talabalarining qorong‘u tarixiga bag‘ishlanganligi edi.

Asardagi tarixiy maktublar, tarixiy voqealar va shaxslar yozuvchining nechog‘lik izlanishlari natijasida yuzaga kelgan asar ekanligidan darak berar edi. Uning “Qo‘rqma” romani katta auditoriyaga ega bo‘lgan yoshlar romanlaridan biri bo‘ldi.

Javlon Jovliev nafaqat roman, balki hikoyachilikda ham bir qadar muvaffaqiyat qozonib, ushbu janrning ham imkoniyatlaridan keng foydalandi. Uning “Stalinga maktublar”, “Mustabidning hasharotlari”, “Ayol” kabi hikoyalari vaqtli matbuot sahifalarida e’lon qilingan, 2022-yilda “Onam va koinot” nomli to‘plami nashr etilib, unda ko‘plab hikoyalar jamlandi. Javlon Jovliev hikoyalarida ham qahramonlar ruhiyati, ruhiytavsir, obrazlar ichki dunyosi o‘zining teran ifodasini topgan. Ayniqsa “Ko‘k, oq va ola kabutarlar”, “Elbek” hikoyalarida ayol ruhiyati, o‘zbek onasining ruhiy qiyofasi nihoyatda ta’sirli berilgan. Ushbu hikoyalarning har birida o‘zgacha syujet tanlangan bo‘lsa-da, ammo qalamga olingan ruhiyat tasviri, ayol ruhiyatining fojeyaviy qiyofasi sabab mushtaraklik kasb etadi.<sup>10</sup> Yuqorida misollarda ham ta’kidlanganidek mustaqillik davri adabiyoti o‘zining xilma-xil ijodkorlari, turlicha adiblari bilan farq qiluvchi davrdir.

Bu davr adabiyotida Shukur Xolmirzayevning o‘rni kattadir. Uning asarlarida inson va tabiat mavzusi qalamga olinadi. Shukur Xolmirzayev hikoya va qissalarining

<sup>10</sup> Ruxsora To‘laboeva. “HIKOYALARDA RUHIYAT TASVIRI (MUSTAQILLIK DAVRI YOSH NOSIRLARI IJODIDAN: JAVLON JOVLIYEV HIKOYALARI MISOLIDA)”.  
<https://uzresearchers.com/index.php/Conferences/article/view/1216/111>

asosiy mavzusi desak ham bo‘ladi. Uning asarları bugungi tabiat bilan inson orasidagi muommolar sababli uning asarlarini o‘rganish, uni tahlil qilish foydali va keraklidir.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. Axadova Sevara Toxir qizi “Istiqlol davri hikoyachiligining o‘ziga xos xususiyatlari” Journal. OFIQRO–ЖУРНАЛИҚРО–IQROJURNALI–volume13, issue 01, 2024.<https://worldlyjournals.com/index.php/IFX/article/view/8099/12911>
2. Xakimova Ro'zigul Abduvali qizi. “MUSTAQILLIK DAVRIDA NASR”.Journal “Mejdunarodny nauchny jurnal(100),chast1”Nauchnyy impuls”.yunya, 2023 <https://nauchniyimpuls.ru/index.php/ni/article/view/10666/7088>
3. Амиркулова Зебунисо Мустафакуловна. “МУСТАҚИЛЛИК ДАВРИ ЎЗБЕК ҲИКОЯЛАРИДАРИХИЙ ШАҲСЛАР ОБРАЗИНИНГ БАДИЙ ТАЛҚИНИ”. Филол. фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун ёзилган ДИССЕРТАЦИЯ
4. Кўбаев Қ. Ўзбек қиссаларида тарихий ҳақиқат ва бадиий маҳорат (60-80 йиллар). Филол. фан. номз... дисс. автореф. – Тошкент, 2001. – Б. 18.
5. Ғойибов Н. Санъат тараққиётининг баъзи масалалари. Тошкент, Адабиёт ва санъат. 1970, 108-б.
6. Ruxsora To‘laboeva. “Hikoyalarda ruhiyat tasviri (Mustaqillik davri yosh nosirlari ijodidan: Javlon Jovliyev hikoyalari misolida)”.[https://uzresearchers.com/index.php/Conferences/article/view/1216/11\\_1](https://uzresearchers.com/index.php/Conferences/article/view/1216/11_1)
7. <https://jdpu.uz/mustaqillik-davri-ozbek-roman%D1%87iligi-badiiy-va-ilmiytafakkur-masalalari/>
8. <https://jdpu.uz/mustaqillik-davri-ozbek-roman%D1%87iligi-badiiy-va-ilmiytafakkur-masalalari/>
9. <https://arxiv.uz/uz/documents/referatlar/adabiyot/istiqlol-davri-o-zbek-adabiyot>